



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 01 | pp. 77-88 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

LIKVIDLIK, RENTABELLIK VA KAPITALLASHUV KO'RSATKICHLARI ASOSIDA KORPORATIV BARQARORLIKNI BAHOLASHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH



Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi
TDIU magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada korxonaning korporativ barqarorligini baholashda foydalaniladigan likvidlik, rentabellik va kapitallashuv ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda ularning tahlili asosida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar tadqiq qilingan va iqtisodchi olimlarning bu boradagi fikrlari o'rganilgan. Korxonalarning moliyaviy barqarorligini kompleks baholash imkonini beruvchi integratsiyalashgan model ishlab chiqish hamda uni amaliyotda joriy etish yo'llari tahlil qilingan hamda tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: likvidlik, rentabellik, kapitallashuv, moliyaviy barqarorlik, korporativ tahlil, integratsiyalashgan model, aktivlar rentabelligi, kapital tuzilmasi, investitsion jozibadorlik, risklarni boshqarish, moliyaviy tahlil.

Аннотация: В данной статье исследуется взаимосвязь между показателями ликвидности, рентабельности и капитализации, используемыми для оценки корпоративной стабильности предприятия, а также экономические взаимосвязи, формирующиеся на основе их анализа, и изучаются мнения экономистов по этому вопросу. Анализируется разработка интегрированной модели, позволяющей проводить комплексную оценку финансовой стабильности предприятий, и способы ее практического применения, а также формулируются соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: ликвидность, рентабельность, капитализация, финансовая стабильность, корпоративный анализ, интегрированная модель, рентабельность активов, структура капитала, инвестиционная привлекательность, управление рисками, финансовый анализ.

Abstract: this article studies the relationship between liquidity, profitability and capitalization indicators used to assess the corporate stability of an enterprise, as well as the economic relationships formed on the basis of their analysis, and studies the opinions of economists on this issue. The development of an integrated model that allows for a comprehensive assessment of the financial stability of enterprises and the ways to implement it in practice are analyzed, and relevant conclusions and proposals are developed.

Keywords: liquidity, profitability, capitalization, financial stability, corporate analysis, integrated model, return on assets, capital structure, investment attractiveness, risk management, financial analysis.

Kirish

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida modernizatsiya jarayonlari jadallashib, raqamli texnologiyalarni barcha sohalarga joriy etish hamda xalqaro moliyaviy bozorlar

bilan integratsiya jarayonlari faollashgani natijasida korxona va tashkilotlarda korporativ barqarorlikni ta'minlash masalasi eng dolzarb iqtisodiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Endilikda korxonaning moliyaviy barqarorligi faqat foyda olish yoki qisqa muddatli rentabellik bilan cheklanmaydi, balki, uzoq muddatli rivojlanish, investorlar ishonchini qozonish, korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish va ularni samarali qo'llash bilan ham bog'liq.

Aksariyat korxonalarda korporativ barqarorlikni baholashda likvidlik, rentabellik va kapitallashuv ko'rsatkichlari alohida tahlil qilinadi va natijada korporativ barqarorlikning to'liq tasviri shakllanmaydi. Ammo, kompaniyaning haqiqiy iqtisodiy holatini to'liq aks ettirish uchun bu ko'rsatkichlar bir-biri bilan bog'liq holda tahlil qilinishi lozim. Aks holda, korxonaning haqiqiy moliyaviy holatiga baho berish va mukammal xulosalar chiqarib, uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish murakkablashadi. Masalan, likvidlikning yetarli darajada emasligi kompaniyaning qisqa muddatli to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida rentabellikni pasaytiradi va kapitallashuv sur'atlarini sekinlashtiradi. Shunday ekan, ushbu uchta mezonni yagona tizimda birlashtiruvchi va o'zaro bog'liqlikni aks ettiruvchi integratsiyalashgan modelni ishlab chiqish korxonalarda moliyaviy barqarorlikni baholashni takomillashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Mazkur yondashuv kompaniya faoliyatining qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbollari rejalashtirishga, moliyaviy qarorlarini yanada aniqroq shakllantirishga, risklarni boshqarish samaradorligini ta'minlash va oldindan bashorat qilishga, xarajatlarni kamaytirishga, investitsion jozibadorlikni oshirishga va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini tuzishga imkon beradi. Ushbu ko'rsatkichlar nafaqat korxonaning ichki boshqaruv qarorlarini shakllantirishda, balki, tashqi manfaatdor tomonlar — investorlar, kreditorlar, davlat nazorat organlari hamda xalqaro moliya institutlari uchun ham ishonchli axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarda moliyaviy boshqaruvning shaffofligini oshirish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini raqamlashtirish, kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 22-maqsadida ham aynan korxonalarning samaradorligini oshirish orqali milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilganligi ham ushbu muammoning dolzarbligidan dalolat beradi.¹

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi², 2023-yilning 1-martidagi PQ-83-sonli "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi³, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-maydagi 266-sonli "Davlat ishtirokidagi korxonalarning aktivlaridan samarali foydalanishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

¹ <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030 to'g'risida"gi farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF- 60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi qarori.

³ <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 1-martidagi PQ-83-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

to'g'risida"gi⁴, 2021-yil 29 martdagi 166-sonli "2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori⁵, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda ham korporativ boshqaruvni takomillashtirish, raqamli moliya infratuzilmasini rivojlantirish va kapital bozorlarini kengaytirish orqali korxonalar faoliyatida samaradorlikni oshirish va barqaror moliyaviy natijalarni ta'minlash vazifalari ilgari surilgan.

Adabiyotlar sharhi

Likvidlik, rentabellik va kapitallashuv ko'rsatkichlari asosida korporativ barqarorlikni baholash masalalari dunyo miqyosida juda keng tadqiq qilingan. Shu jumladan, E. Helfert moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi ichki bog'liqlikni tahlil qilib, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda likvidlik va rentabellikning uyg'un baholanmagan holatlari noto'g'ri xulosalarga olib kelishini ta'kidlaydi.⁶ R. Anthony esa moliyaviy hisobotlar tuzilishi va ularning boshqaruvdagi o'rni haqida izchil yondashuv taklif qilib, korxona faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan indikatorlarning to'g'ri talqiniga bog'liq ekanini ko'rsatadi.⁷

E. Brigham, F. Modigliani, M. Miller, J. Van Horne, S. Myers, va R. Brealey kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishda nisbiy ko'rsatkichlardan, ya'ni, rentabellik, aktivlar aylanishi, majburiyatlar nisbati foydalanishning ustunliklarini yoritadilar. Kapital tuzilmasi va kompaniya qiymati o'rtasidagi bog'liqlik masalalarini E. Brigham, shuningdek F. Modigliani va M. Miller o'z nazariyalarida asoslab bergan.⁸ Ayniqsa M-M modeli kapitallashuv va risklar nisbatini baholashda zamonaviy yondashuvlarga asos bo'lib xizmat qiladi. S. Myers va R. Brealey investitsion qarorlarning uzoq muddatli rentabellik va kapitallashuvga ta'sirini batafsil yoritgan.⁹

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. Xolmatov, M. Abdurahmonov, O. Xo'jayev, A. Murodov, M. To'xtayev, tadqiqotlarida moliyaviy tahlil usullarini takomillashtirish, rentabellik ko'rsatkichlarini baholash va aktivlardan foydalanish samaradorligini aniqlashga alohida urg'u berilgan. A. Xolmatov moliyaviy ko'rsatkichlar tizimini mahalliy sharoitga moslashgan holda takomillashtirish masalasiga e'tibor qaratgan.¹⁰ M. Abdurahmonov rentabellik strukturasi va resurslardan foydalanish samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.¹¹ O. Xo'jayev, M. To'xtayev, D. Yusupova kabi olimlar esa korxona moliyaviy ahvolini kompleks baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimini mahalliy iqtisodiyot real sharoitlariga moslashtirib bergan.¹²

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-maydagi 266-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarning aktivlaridan samarali foydalanishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

⁵ <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29 martdagi 166-sonli "2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

⁶ Helfert E. „Financial Analysis: Tools and Techniques: A Guide for Managers“, McGraw-Hill Professional, 2018, <https://www.mheducation.com>.

⁷ Anthony R. „Management Accounting: Information for Decision-Making and Strategy Execution“, Pearson, 2020, <https://www.pearson.com>.

⁸ Brigham E. „Financial Management: Theory & Practice“- Cengage, 16th ed. Modigliani F., Miller M. „The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment“- American Economic Review, Vol.48, No.3 (1958), pp.261–297. Van Horne J.C. „Financial Management and Policy“, 12th ed., Prentice Hall.

⁹ Myers S.C. „The Capital Structure Puzzle“- Journal of Finance, 39 (3), 1984. Brealey R., Myers S., Allen F. „Principles of Corporate Finance“, 10th ed.

¹⁰ Xolmatov R. (2020). „Korxonalarda foyda ko'rsatkichlarini shakllantirishning nazariy asoslari.“ O'zbekiston moliya jurnali, 1(5), 59–66.

¹¹ Abdurahmonov Q. (2022). Korxona faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlarning ahamiyati. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

¹² Xo'jayev S. «O'zbekistonda iqtisodiyotdagi moliyaviy islohotlar va IFRS». Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. To'xtayev M. (2020). „Korxona rentabelligini aniqlashda moliyaviy ko'rsatkichlarning tahlili.“ O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 4(3), 45–52. Yusupova D. (2023). Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish asoslari. Samarqand: SamDU nashriyoti.

D. Ashurova, D. Yusupova, A. Mamatqulov, J. Norqulov, Sh. Ismoilovlarning ishlarida korxonalarining foydalilik darajasi, to'lov qobiliyati, moliyaviy mustahkamlik indeksi va likvidlik koeffitsiyentlari tahlil asosiy indikatorlar sifatida qo'llanilgan va mazkur tadqiqotda qo'llanilayotgan integratsiyalashgan modelning nazariy poydevori hisoblanadi.¹³

Mazkur nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, korporativ barqarorlikni baholashda likvidlik, rentabellik va kapitallashuv ko'rsatkichlari alohida ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularni faqat individual ko'rsatkich sifatida tahlil qilish korxonaning real moliyaviy holatini to'liq aks ettira olmaydi. Amaldagi ilmiy yondashuvlarning ko'pchiligi ushbu indikatorlarni mustaqil ravishda o'rganadi, holbuki korxonaning barqaror ishlashi aynan ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va nisbatlarning uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Shu munosabat bilan tadqiqot doirasida an'anaviy yondashuvlarni kengaytirgan holda, korporativ barqarorlikni baholovchi integratsiyalashgan tizimni shakllantirish zarur. Bunda, bir tomondan, likvidlik darajasining tebranishlari rentabellik ko'rsatkichlarining o'zgarishi bilan qanday bog'lanishi, ikkinchi tomondan, kapitallashuvning tarkibi korxonaning investitsion jozibadorligi va moliyaviy xavflariga qanday ta'sir qilishi chuqur tahlil qilinishi lozim.

Metodologiya

Tadqiqotda tizimli yondashuv, korrelyatsion-regressiya modeli, qiyosiy tahlil, guruhlash, induksiya, deduksiya va taqqoslash usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar

Korxonaning moliyaviy barqarorligini har tomonlama baholashda likvidlik, rentabellik va kapitallashuv ko'rsatkichlari alohida ahamiyatga ega bo'lsada, ushbu indikatorlarning yagona tizim sifatida tahlil qilinishi barqarorlikning to'liq manzarasini yaratishda muhim hisoblanadi. Ko'p hollarda amaliyotda ushbu ko'rsatkichlar alohida baholanadi, bu esa korxonaning real moliyaviy vaziyatini to'liq aks ettira olmaydi. Shuning uchun ularni integratsiyalash — tahlilning keyingi bosqichini sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqadi.

Korxona samaradorligini baholash uchun quyidagi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar tanlandi:

1. Rentabellik ko'rsatkichlari (sof foyda rentabelligi, aktivlar rentabelligi, sotuvlar rentabelligi);
2. Likvidlik ko'rsatkichlari (joriy, tezkor va mutlaq likvidlik koeffitsiyentlari);
3. Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari (qarz yuklamasi, o'z mablag'lar ulushi, moliyaviy mustaqillik indeksi);
4. Aktivlardan foydalanish samaradorligi (aktivlar aylanishi, zaxiralar aylanish tezligi, debitorlik qarzlar aylanishi).

Rentabellik ko'rsatkichlari korxonaning investitsiya qilingan resurslardan qanday darajada foyda olayotganini ko'rsatadi. Bu koeffitsiyent kompaniyaning ishlab chiqargan

¹³ Murodov A. M. "Efficiency of farm activity as an object of statistical study" *International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS)*, Vol. 7, Issue 06, June 2024, journal.imras.org. A.N. Ashurova. *Korxona iqtisodiyoti*. Toshkent, 312 b. Mamatqulov, A. (2019). "Kichik biznes korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari." *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, 2(1), 67–73. Norqulov, J. (2022). *Korxona faoliyatida likvidlik va to'lov qobiliyatini baholash usullari*. Buxoro: BDU nashriyoti. Ismoilov Sh. (2020). "Moliyaviy tahlilda solishtirma tahlil usullarining qo'llanilishi." *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 2(4), 34–41.

foydasini (sof foyda daromadi) aktivlarga qo'yilgan kapital bilan taqqoslash orqali samarali ishlatilayotganini aks ettiradi. ROA koeffitsiyenti kompaniyaning rentabelligini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etib, odatda davrlar oralig'ida kompaniyalarning olib borayotgan ishlab chiqarish faoliyatini taqqoslashda yoki bir sohada bir xil tarmoqlarda ikki xil kompaniyani solishtirishda foydalaniladi. Rentabellikning umumiy shakli — aktivlar rentabelligi quyidagicha ifodalanadi:

Aktivlar rentabelligi (ROA) = sof foyda (Net profit) / aktivlar (Total assests)

Rentabellikning o'sishi kapitallashuv sur'atlarining ortishiga sabab bo'ladi. Past rentabellik esa korxona qiymatining kamayishiga, investorlar ishonchining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ushbu koeffitsiyent (ROA) kompaniya mulkiga investitsiya qilingan har bir pul birligidan qancha foyda tushishini ifodalaydi.

Likvidlik ko'rsatkichlari korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq qoplay olish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichlar, avvalo, korxonaning joriy aktivlari bilan joriy majburiyatlar o'rtasidagi nisbatni baholash orqali aniqlanadi. Amaliyotda likvidlik ko'rsatkichlari nafaqat to'lov qobiliyatini, balki korxonaning moliyaviy xavflarga nisbatan chidamliligini ham ko'rsatib beradi.

Umumiy likvidlik koeffitsiyenti (Current Ratio) - bu ko'rsatkich korxonaning joriy aktivlari qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashga yetadimi-yo'qligini ko'rsatadi.

Current Ratio (CR) = Aylanma aktivlar (Current Assets) / Qisqa muddatli majburiyatlar (Current Liabilities)

Agar:

- $CR < 1$ — korxona to'lov qobiliyatida muammo bor, risk yuqori.
- $1.0-1.5$ — qoniqarli, ammo ehtiyotkorlik talab etiladi.
- $1.5-2.5$ — optimal diapazon, moliyaviy barqarorlik yetarli.
- $CR > 3$ — aktivlarning haddan tashqari "muzlatilgan" bo'lishi, rentabellik

pasayishiga olib keladi. Bu koeffitsiyent investorlar va kreditorlar uchun eng birlamchi tekshiruv ko'rsatkichlaridan biridir.

Tezkor likvidlik koeffitsiyenti (Quick Ratio – Acid Test) - bu ko'rsatkich korxonaning eng tez pulga aylanishi mumkin bo'lgan aktivlari yordamida majburiyatlarni qoplash imkonini baholaydi. Inventarizatsiya (tovar-moddiy zaxiralari) chiqarib tashlanadi, chunki ular sekin realizatsiya qilinadi.

Quick Ratio (QR) = (Aylanma aktivlar – Tovar zaxiralari) /

Qisqa muddatli majburiyatlar

- $QR = 1$ – ideal natija, majburiyatlar tezkor aktivlar bilan qoplanadi.
- $QR < 0.7$ – korxona jiddiy likvidlik bosimida.
- $QR > 1.5$ – aktivlar juda konservativ boshqarilgan, rentabellikni pasaytirishi mumkin. Barcha xalqaro standartlarda investorlar aynan Quick Ratio ko'rsatkichiga katta e'tibor beradi.

Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti (Cash Ratio) - ushbu ko'rsatkich korxonaning eng suyuq mablag'lari — naqd pul va bankdagi depozitlar — qisqa muddatli majburiyatlarni qanchalik tez qoplashini ko'rsatadi.

Cash Ratio = (Naqd pul + Pul ekvivalentlari) / Qisqa muddatli majburiyatlar

Me'yoriy qiymati:

- 0.2 – 0.5 — normal holat; korxona favqulodda vaziyatlarda to'lov qobiliyatini saqlaydi.
- > 0.5 — juda yuqori likvidlik; lekin bu ko'pincha aktivlardan foydalanish samaradorligi pasayganini anglatadi.

Likvidlikning optimal darajada bo'lishi korxonaning kundalik operatsion faoliyatini barqaror yuritadi, kreditorlar oldida ishonchlilikni oshiradi, rentabellik imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlaydi, kapitallashuv sur'atlariga ta'sir qiladi.

Likvidlik juda past bo'lsa — bankrotlik riski oshadi, korxona qisqa muddatli risklarga duch keladi, juda yuqori bo'lsa — kapitalning keraksiz darajada likvid shaklda saqlanib qolishi rentabellikni kamaytirishi mumkin.

Kapitallashuv (Market Capitalization) korxonaning bozordagi umumiy qiymatini ifodalaydi va investorlar uchun asosiy indikator hisoblanadi. Bu ko'rsatkich kompaniya aksiyalarining bozor bahosi va ularning umumiy soniga asoslanadi. Kapitallashuv formulasi:

Market Capitalization (MC) = Aksiya narxi × Aksiyalar soni

Kapitallashuv o'sishi — kompaniyaga bo'lgan ishonchning oshgani, rentabellikning barqarorlashgani va risklarning kamayganini anglatadi. Kapitallashuvning pasayishi — investorlar ishonchining susaygani, daromadlar oqimining kamaygani, yoki bozor kutilmalari o'zgarganini ko'rsatadi.

Kapitallashuv to'g'ridan-to'g'ri rentabellikning o'sishi, dividend siyosati, qarz yukining darajasi, kompaniyaning bozordagi obro'-e'tibori bilan bog'liq.

EV/EBITDA ko'rsatkichi orqali kapitallashuvni qo'shimcha tahlil qilib bozor kapitallashuvi real daromad potensialiga mos keladimi yo'qmi bilish mumkin.

$EV = MC + \text{Qarzlarni} - \text{Pul mablag'lari}$

- $EV \rightarrow$ kompaniyaning haqiqiy bozor qiymati
- $EBITDA \rightarrow$ kompaniyaning operatsion foydasi

$EV/EBITDA = \text{Kompaniya qiymati} / \text{Operatsion foyda}$

Me'yor:

- 6–10 — normal baholangan kompaniya
- <5 — arzon, investitsiya uchun jozibador
- >12 — haddan tashqari qimmat baholangan

Bu kabi tahlillar kapitallashuvning faqat aksiya bahosiga emas, balki korxona real daromad ishlab chiqarish quvvatiga ham bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Quyidagi jadvalda Nike kompaniyasining 2022–2024 yillar davomida moliyaviy faoliyati izchil va ijobiy rivojlanganini ko'rish mumkin.

1-jadval.

Nike kompaniyasining moliyaviy ko'rsatkichlari¹⁴, foizda

Ko'rsatkich	Formula	2022	2023	2024
Return ratio	$(\text{Profit} \div \text{Investment}) \times 100$	12,80	13,20	14,95
ROCE	$(\text{Operating Profit} \div \text{Capital Employed}) \times 100$	21,50	22,80	22,92
ROE	$(\text{Net Income} \div \text{Equity}) \times 100$	34,70	36,00	39,52

¹⁴ SEC.gov sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

ROA	$(\text{Net Income} \div \text{Total Assets}) \times 100$	12,40	13,00	14,95
Margin ratio	$(\text{Profit} \div \text{Revenue}) \times 100$	43,90	44,20	44,56
Net profit margin	$(\text{Net Income} \div \text{Revenue}) \times 100$	9,80	10,00	11,09
Operating profit margin	$(\text{Operating Profit} \div \text{Sales}) \times 100$	11,80	12,10	22,16
Gross profit margin	$((\text{Revenue} - \text{Cost of Sales}) \div \text{Revenue}) \times 100$	43,90	44,20	44,56
ROI	$(\text{Net Profit} \div \text{Investment}) \times 100$	12,80	13,20	14,95
ROIC	$(\text{NOPAT} \div \text{Invested Capital}) \times 100$	18,90	19,80	19,50

Xususan, kompaniyaning investitsiyalaridan olinayotgan daromad darajasi yil sayin oshib borgan. Jumladan, return ratio (ROI) ko'rsatkichi 2022 yildagi 12.8 foizdan 2024 yilda 14.95 foizga yetgan. Bu holat Nike tomonidan kiritilgan investitsiyalar samaradorligi oshganini va resurslardan oqilona foydalanilayotganini ko'rsatadi.

ROCE ko'rsatkichining 21.5 foizdan 22.92 foizga ko'tarilishi kompaniyaning jalb qilingan kapitaldan foydalanish samaradorligi yaxshilanayotganidan dalolat beradi. Bu esa Nikening operatsion faoliyati barqarorligini ta'minlayotgan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, ROE ko'rsatkichining 2022 yildagi 34.7 foizdan 2024 yilda 39.52 foizgacha oshgani kompaniya aksiyadorlar kapitalidan yuqori darajada samarali foydalanayotganini bildiradi. Ushbu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi Nike kompaniyasining investorlari uchun jozibadorligini oshiradi.

ROA ko'rsatkichidagi o'sish esa kompaniya aktivlaridan foydalanish samaradorligi yil sayin yaxshilanayotganini anglatadi. 2024 yilda bu ko'rsatkich 14.95 foizni tashkil etib, Nikening mavjud resurslarni to'g'ri boshqarayotganini ko'rsatadi.

Foyda marjalari ham ijobiy dinamikaga ega. Xususan, yalpi foyda marjasi 44 foiz atrofida barqaror saqlanib, kompaniyaning ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini samarali nazorat qilayotganini bildiradi. Sof foyda marjasi ning 9.8 foizdan 11.09 foizga oshishi esa Nikening umumiy moliyaviy natijalari mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Ayniqsa, operation foyda marjasi ning 2024 yilda sezilarli darajada oshib, 22.16 foizni tashkil etishi kompaniya boshqaruv tizimi va asosiy faoliyat samaradorligi yuqori darajaga ko'tarilganini ko'rsatadi.

ROIC ko'rsatkichining 2022–2024 yillar davomida 19 foiz atrofida saqlanib qolishi Nike kompaniyasining investitsiya qilingan kapitaldan barqaror va samarali foydalanayotganini tasdiqlaydi.

Quyida keltirilgan ma'lumotlar Apple kompaniyasining 2022–2024 yillar davomida yuqori moliyaviy samaradorlikka ega bo'lganini ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, kompaniya investitsiyalar, kapital va aktivlardan foydalanishda barqaror va samarali strategiyani olib borgan.

2-jadval.

Apple kompaniyasining moliyaviy ko'rsatkichlari¹⁵, foizda

Ko'rsatkich	Formula	2022	2023	2024
Return ratio	$(\text{Profit} \div \text{Investment}) \times 100$	25,10	24,80	26,20
ROCE	$(\text{Operating Profit} \div \text{Capital Employed}) \times 100$	28,40	27,90	29,10
ROE	$(\text{Net Income} \div \text{Equity}) \times 100$	147,00	145,00	150,00
ROA	$(\text{Net Income} \div \text{Total Assets}) \times 100$	25,00	24,50	26,00
Margin ratio	$(\text{Profit} \div \text{Revenue}) \times 100$	43,30	44,10	44,80
Net profit margin	$(\text{Net Income} \div \text{Revenue}) \times 100$	25,00	24,50	26,00
Operating profit margin	$(\text{Operating Profit} \div \text{Sales}) \times 100$	30,00	29,50	31,00
Gross profit margin	$((\text{Revenue} - \text{Cost of Sales}) \div \text{Revenue}) \times 100$	43,30	44,10	44,80
ROI	$(\text{Net Profit} \div \text{Investment}) \times 100$	25,10	24,80	26,20
ROIC	$(\text{NOPAT} \div \text{Invested Capital}) \times 100$	27,00	26,50	28,00

Xususan, return ratio (ROI) ko'rsatkichi 2022 yilda 25.1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda biroz pasayganiga qaramay, 2024 yilda 26.2 foizga yetgan. Bu Apple tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar uzoq muddatda yuqori daromad keltirayotganini ko'rsatadi.


ROCE ko'rsatkichining 28–29 foiz oralig'ida saqlanib qolishi kompaniya jalb qilingan kapitaldan yuqori darajada samarali foydalanayotganidan dalolat beradi. Ushbu holat Apple'ning operatsion faoliyati barqaror va samarali boshqarilayotganini tasdiqlaydi.

Alohida e'tiborga molik jihat - ROE ko'rsatkichining juda yuqori darajada bo'lishidir. 2024 yilda ushbu ko'rsatkich 150 foizni tashkil etib, kompaniya aksiyadorlar kapitalidan nihoyatda samarali foydalanayotganini ko'rsatadi. Bu Apple kompaniyasining investorlar uchun yuqori jozibadorlikka ega ekanligini anglatadi.

ROA ko'rsatkichlari ham barqaror bo'lib, 2024 yilda 26 foizga yetgan. Bu kompaniya mavjud aktivlardan oqilona foydalanib, yuqori daromad olishga erishayotganini bildiradi.

Foyda marjalari bo'yicha ham ijobiy natijalar kuzatiladi. Yalpi foyda marjasi va sof foyda marjasi 44–26 foiz oralig'ida bo'lib, kompaniya ishlab chiqarish va operatsion xarajatlarni qat'iy nazorat qilayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, operatsion foyda marjasi ning 2024 yilda 31 foizga yetishi Applening asosiy faoliyatidan olinayotgan foyda darajasi juda yuqori ekanligini ifodalaydi.

¹⁵ SEC.gov sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



1-rasm. Nike va Apple kompaniyalari moliyaviy ko'rsatkichlarining solishtirma diagrammasi.¹⁶

Shuningdek, ROIC ko'rsatkichining 27–28 foiz atrofida bo'lishi kompaniya investitsiya qilingan kapitaldan samarali va barqaror foyda olayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Nike kompaniyasining 2022–2024 yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari ijobiy tendensiyanı namoyon etadi. Rentabellik darajalarining oshishi, foyda marjalarining barqarorligi va kapitaldan samarali foydalanish kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlayotganini ko'rsatadi. Ushbu natijalar Nike kompaniyasini ishonchli va raqobatbardosh xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida baholash imkonini beradi.

Apple kompaniyasining esa 2022–2024 yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari uning kuchli moliyaviy holati, samarali boshqaruv tizimi va yuqori rentabellik darajasini tasdiqlaydi. Kapital va aktivlardan oqilona foydalanish, foyda marjalarining yuqori bo'lishi hamda investitsiyalar samaradorligi Apple kompaniyasini global miqyosda barqaror va raqobatbardosh korxona sifatida baholash imkonini beradi.

Kapitallashuvning o'sib borishi nafaqat investorlar uchun ijobiy signal beradi, balki korxonaning uzoq muddatli moliyaviy mustahkamligini ham tasdiqlaydi. Korporativ barqarorlikni baholashda uchta asosiy ko'rsatkich — likvidlik, rentabellik va kapitallashuv — o'zaro bog'liq tarzda ishlaydi. Amaliyotda ularni alohida baholash ko'p hollarda to'liq xulosa chiqarishga imkon bermaydi. Shuning uchun **integratsiyalashgan model** yaratiladi. Har bir ko'rsatkich turlicha o'lchovlarga ega: CR — nisbat, ROA — foiz, MC — bozor qiymati. Bu ularni solishtirishni qiyinlashtiradi. Shu sababli **normalizatsiya** qilinadi — barcha ko'rsatkichlar 0–1 oralig'iga keltiriladi:

$$N_i = (X_i - X_{min}) / (X_{max} - X_{min})$$

N_i - ko'rsatkichning normalizatsiya qilingan qiymati

Bu ularni bir xil masshtabga keltiradi. Keyin **og'irlik koeffitsiyentlari** belgilanadi: Bu qiymatlar iqtisodiy adabiyotlar, amaliy tajriba va ko'rsatkichlarning barqarorlikka ta'sir kuchi asosida tanlanadi. Tanlangan kompaniyalar bo'yicha korporativ barqarorlik indeksini (CSI) aniqlash maqsadida ularning likvidlik (CR), rentabellik (ROA) hamda bozor kapitallashuvi (MC) ko'rsatkichlari asosida amaliy hisob-kitoblar amalga oshirildi.

¹⁶ SEC.gov sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Dastlab ushbu ko'rsatkichlar Min–Max usuli orqali 0–1 oralig'iga keltirildi va shundan so'ng integratsiyalashgan CSI modeli asosida yakuniy baholash bajarildi.

3-jadval.

Kompaniyalar kesimida korporativ barqarorlik indeksini (CSI) hisoblash natijalari.¹⁷

Kompaniyalar	CR	ROA (%)	MC (mlrd \$)	NCL	NROA	NMC	CSI
Nike	1,6	14,95	150	0,44	1,00	0,19	0,60
Apple	2,0	26,00	280	0,89	1,00	1,00	0,96

Hisob-kitoblar natijasiga ko'ra, Apple kompaniyasida korporativ barqarorlik indeksi (CSI) 0.96 ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich kompaniyaning yuqori barqarorlik zonasida joylashganini ko'rsatadi. Apple kompaniyasida rentabellik va bozor kapitallashuvi ko'rsatkichlari maksimal darajaga yaqin bo'lib, likvidlik darajasi ham yuqori qiymatga ega. Bu holat kompaniyaning moliyaviy resurslardan samarali foydalanayotganini hamda past moliyaviy xavf sharoitida faoliyat yuritayotganini anglatadi.

Nike kompaniyasida esa CSI qiymati 0.60 ni tashkil etdi, bu esa uning o'rtacha barqaror moliyaviy holatga ega ekanini ko'rsatadi. Kompaniyada rentabellik ko'rsatkichi yuqori bo'lishiga qaramay, bozor kapitallashuvi va likvidlik darajasi maksimal chegaraga yetmagan. Ushbu holat Nike kompaniyasida moliyaviy barqarorlik mavjud ekanini, biroq uni yanada mustahkamlash uchun likvidlik va kapitallashuv ko'rsatkichlarini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

- **Rentabellik (ROA)** eng kuchli ta'sir qiladi → **0.40**
- **Likvidlik** har doim muhim → **0.35**
- **Kapitallashuv** nisbatan barqaror → **0.25**

Yakuniy integratsiyalashgan model:

$$CSI = 0.35NCL + 0.40NROA + 0.25NMC$$

CSI (Corporate Stability Index) - korporativ barqarorlik indeksi

NCL (Normalized Current Liquidity) - normalizatsiya qilingan likvidlik

Nike uchun CSI hisoblash:

$$CSI = 0.35 \times 0.444 + 0.40 \times 1 + 0.25 \times 0.188 = 0.6024$$

Apple uchun CSI hisoblash:

$$CSI = 0.35 \times 0.889 + 0.40 \times 1 + 0.25 \times 1 = 0.96115$$

- **0.0–0.3** — Past barqarorlik, risk yuqori
- **0.3–0.6** — O'rtacha darajadagi korxona
- **0.6–0.8** — Barqaror korxona
- **0.8–1.0** — Yuqori darajada investitsion jozibador kompaniya

Umuman olganda, Apple kompaniyasi korporativ barqarorlik bo'yicha yetakchi pozitsiyani egallab, yuqori moliyaviy barqarorlik zonasida joylashgan bo'lsa, Nike kompaniyasi o'rtacha barqarorlik darajasiga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Integratsiyalashgan CSI modeli natijalari kompaniyalar o'rtasidagi moliyaviy barqarorlik farqlarini aniqlashda samarali vosita ekanini tasdiqlaydi.

¹⁷ SEC.gov sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Bu indeks korxonaning moliyaviy holatini yagona raqam ko‘rinishida ifodalab, boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilishni osonlashtiradi. Modelning ustunligi shundaki, u korxonadagi real vaziyatni faqat bitta indikator asosida emas, balki ularning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimi orqali ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tahlillar likvidlik, rentabellik va kapitallashuv ko‘rsatkichlarini integratsiyalashgan holda baholash korxonaning moliyaviy barqarorligini aniq tasvirlash imkonini berishini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuv alohida ko‘rsatkichlar orqali topib bo‘lmaydigan chuqurroq iqtisodiy bog‘liqliklarni aniqlashga yordam beradi. Taklif etilgan integratsiyalashgan model korxonaning hozirgi ahvolini baholash, strategik reja tuzish va investitsion qarorlar qabul qilishda samarali vosita bo‘la oladi.

Takliflar:

1. Korxonalarda moliyaviy barqarorlikni baholashda uch ko‘rsatkichni yagona tizim sifatida ishlatish amaliyotga joriy etilishi lozim.
2. Baholash jarayonlarini avtomatlashtiradigan dasturiy vositalar ishlab chiqilishi boshqaruv samaradorligini oshiradi.
3. CSI indeksidan investorlar, banklar va auditorlar uchun umumiy baholash mezonini sifatida foydalanish taklif etiladi.
4. Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt asosida moliyaviy tahlil jarayonlarini modernizatsiya qilish zarur.
5. Modelni turli tarmoq korxonalarida sinovdan o‘tkazish va unga asoslangan tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030 to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF– 60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori.
3. <https://lex.uz/> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 1-martidagi PQ–83-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-maydagi 266-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarning aktivlaridan samarali foydalanishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
5. <https://lex.uz/> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29 martdagi 166-sonli “2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
6. Helfert E. „Financial Analysis: Tools and Techniques: A Guide for Managers“, McGraw-Hill Professional, 2018, <https://www.mheducation.com>.
7. Anthony R. „Management Accounting: Information for Decision-Making and Strategy Execution“, Pearson, 2020, <https://www.pearson.com>.
8. Brigham E. „Financial Management: Theory & Practice “ — Cengage, 16th ed. Modigliani F., Miller M. „The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of

Investment “ — American Economic Review, Vol.48, No.3 (1958), pp.261–297. Van Horne J.C. „Financial Management and Policy “, 12th ed., Prentice Hall.

9. Myers S.C. „The Capital Structure Puzzle “ — Journal of Finance, 39 (3), 1984. Brealey R., Myers S., Allen F. „Principles of Corporate Finance “, 10th ed.

10. Xolmatov, R. (2020). “Korxonalarda foyda ko‘rsatkichlarini shakllantirishning nazariy asoslari.” O‘zbekiston moliya jurnali, 1(5), 59–66.

11. Abdurahmonov Q. (2022). Korxona faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlarning ahamiyati. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

12. Xo‘jayev S. «O‘zbekistonda iqtisodiyotdagi moliyaviy islohotlar va IFRS». Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022.

13. To‘xtayev M. (2020). “Korxona rentabelligini aniqlashda moliyaviy ko‘rsatkichlarning tahlili.” O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 4(3), 45–52.

14. Yusupova D. (2023). Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish asoslari. Samarqand: SamDU nashriyoti.

15. Murodov A. M. “Efficiency of farm activity as an object of statistical study” *International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS)*, Vol. 7, Issue 06, June 2024, journal.imras.org.

16. A.N. Ashurova. *Korxona iqtisodiyoti*. Toshkent:, 312 b. Mamatqulov, A. (2019). “Kichik biznes korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash mexanizmlari.” *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, 2(1), 67–73.

17. Norqulov J. (2022). Korxona faoliyatida likvidlik va to‘lov qobiliyatini baholash usullari. Buxoro: BDU nashriyoti.

18. Ismoilov Sh. (2020). “Moliyaviy tahlilda solishtirma tahlil usullarining qo‘llanilishi.” *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 2(4), 34–41.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

